

Qurilish - ta'mirlash ishlarini bajarish bo'yicha ShARTNOMA

20«12»2022 yil.

420-11-153-XT/2022-son

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma Nizom asosida ish yurituvchi "ME'MOR PARDOZ" XK (keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb ataladi) nomidan raxbari S.Jo'rayev birinchi tomon va ikkinchi tomon O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi Beshariq tumani Xalq ta'limi bo'limi nomidan (kelgusida "Buyurmachi" deb ataladi) raxbari V.Abduraxmonov o'rtalaridagi quyidagi maqsadlarda tuzildi:

1.Shartnoma predmeti

1.1. "Ijrochi" "Buyurmachi"ga (№22110012203209 lot nomer narxi 205 000 000 so'm e'lon joylashtirilgan. Birja portalida turish muddati 5.12.2022 yildan 12.12.2022 yilgacha) quyidagi joriy ta'mirlash ishlarini bajarib beradi: Beshariq tumani XTB tasarrufidagi 54 maktab Binosini joriy tamirlash.

Qilinadigan ishlar ro'yxati: Smeta hujjatlari, nuqsonlar dalolatnomasi va ekspertiza xulosasiga asosan

1.2. Mazkur shartnomaning umumiy qiymati QQSsi bilan 204.000.000 (ikki yuz to'rt million) so'mni tashkil qiladi.

1.3. Bajariladigan ishlar (xizmatlar)ni xususiyatidan kelib chiqib tegishli xujjatlar rasmiylashtirilgani holda tomonlarni o'zaro kelishuviga asosan alohida spetsifikatsiya tuzilib tasdiqlanadi va ushbu shartnomaga ilova qilinadi.

1.4. Ishlar (xizmatlar)ni bajarish muddati yil davomida.

2. Xisob-kitob shartlari.

2.1. Bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) uchun xisob-kitob loyixa-smeta xujjatlari xamda ishni bajarishga da'vogar korxonalarining tijorat takliflaridan kelib chiqib belgilangan narxlarda, bajarilgan ishlar dalolatnomasi, schyot-faktura va boshqa tegishli xujjatlar rasmiylashtirilib "Buyurmachi" tomonidan qabul qilinib olingandan so'ng to'lov jadvali bo'yicha amalga oshiriladi. Kelishilgan narxlarning shakllanishuvi uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar)ni smetasi, kalkulyatsiya va baholar preyskurantilari asos bo'lib hisoblanadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish va taftish ishlari natijasida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) uchun narxlar yuqori deb topilsa, ushbu farq "Ijrochi" xisobidan qoplanadi.

2.2 "Buyurmachi" oldindan 30% to'lovni amalga oshiradi, hamda to'liq xisob-kitobni ish bajarilib qabul qilinib olingandan so'ng 2022 yil "31" dekabrgacha amalga oshiradi. Shartnoma bir oydan ortiq muddatga tuzilgandan 30% miqdoridagi oldindan to'lov, to'lov jadvaliga asosan har oyda amalga oshirilib boriladi.

3. Tomonlar huquqi va majburiyatlari:

3.1. "Ijrochi" o'z kuchlari va vositalari bilan barcha ishlarni mazkur shartnoma va ilovalarida ko'zda tutilgan hajmlarida va 25 dekabrgacha muddatda sifatli, texnik talablarga javob beradigan darajada bajaradi, bajarilgan ish (xizmat)lar uchun sifatini tasdiqlovchi xujjat taqdim etadi va tegishli xujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. "Ijrochi" tomonidan bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni bir qismi yoki xammasi sifatli bajarilganligi aniqlanib tegishli ravishda "Buyurmachi" tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirilganda bajarilgan ishlarni sifatli qismi "Ijrochi" tomonidan o'z mablag'lari hisobidan bajarib beriladi. Ushbu qo'shimcha bajarilgan ishlar uchun "Buyurmachi" tomonidan to'lov amalga oshirilmaydi.

3.3. "Buyurmachi" "Ijrochi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlar (xizmatlar)ni nuqson dalolatnomalari (defekt akt), loyixa-smeta xujjatlari va boshqa tegishli xujjatlari bilan "Ijrochi"ni ta'minlaydi.

3.4. "Buyurtmachi" bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni shartnoma shartlari va spetsifikatsiyaga to'g'ri kelishini tekshirib qabul qilib olgandan so'ng bajarilgan ishlar (xizmatlar) uchun shartnomada ko'rsatilgan tartibda to'lovni amalga oshirishi shart.

4. Tomonlar javogarligi

4.1. Agar "Ijrochi" tomonidan "Buyurtmachi"ga sifatsiz, yoki talabga javob bermaydigan holatdagi ishlarni bajarib bergan holda "Buyurtmachi" "Ijrochi"dan bunday sifatsiz bajarilgan ishlarning umumiy qiymatidan 20% jarima qo'llab, qonunchilikda belgilangan tartibda undirib olinadi.

4.2. Agar "Ijrochi" tomonidan "Buyurtmachi"ga belgilangan ish, xizmatlarni belgilangan bajarib berilmasi, "Ijrochi" muddati o'tgan xar bir kun uchun kechiktirilgan ish, xizmatlar qiymatidan ning 0.5% miqdorida, lekin kechiktirilgan xizmatlar qiymatining 50%dan oshmagan xolda "Buyurtmachi"ga penya to'laydi.

4.4. Jarimalar to'lanishi "Ijrochi"ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

5. "Fors-major"

5.1. Shartnomada ko'rsatilgan shartlar tomonlarga bog'liq bo'lmagan favqulodda hollarda buzilsa (ya'ni suv toshqini, yonin, zilzila, va boshqa tabiiy ofatlar va xukumatning maxsus qarorlarini bajarish bilan bog'liq xollarda) tomonlar javobgar bo'lmaydi.

6. Shartnoma muddati

6.1. Shartnoma ikkala tomonlar imzolangandan so'ng kuchga kiradi.

6.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha. Ma'lum sabablarga ko'ra bajarilgan ishlar (xizmatlar) uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish imkoni bo'lmaganda tomonlarni o'zaro kelishuviga asosan to'lov uchun qo'shimcha vaqt belgilanadi.

6.3. Shartnoma quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

a) tomonlar o'zaro yozma kelishuviga asosan;

b) "Ijrochi" tomonidan bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni sifatsizligi to'g'risida "Buyurtmachi" tomonidan belgilangan tartibda xujjat rasmiylashtirilib tegishli xulosa olinganda;

v) "Ijrochi" tomonidan mazkur shartnomaning 3.1 va 3.2 bandlari bajarilmaganda;

g) byudjetdan mablag' oluvchini xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritilishi natijasida shartnoma summasi kamaytirilishi lozim bo'lgan holda "Ijrochi" bunga rozilik bermagan taqdirda;

d) narxlar o'zgarishi natijasi maxsulotlarning, bajarilgan ishlar (xizmatlar)ni narxi ma'lum sanadan o'zgarishi (kamayishi yoki ko'payishi) lozim bo'lgani holda tomonlar o'zaro kelisha olmagan taqdirda;

Izoh: b, v, g, d punktlari bo'yicha shartnomalar "Buyurtmachi" tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin. Shartnomaning bekor qilingani to'g'risida "Buyurtmachi" "Ijrochi"ga yozma ravishda, asoslarini keltirgan holda xat bilan ma'lum qiladi.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro hal qilinadi. O'zaro hal qilinmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan Iqtisodiy sudlari orqali hal qilinadi.

7.2. "Ijrochi" o'z faoliyatini yurgizish uchun lozim bo'lmagan xujjatlardan (litsenziya, guvoxnoma, sertifikat) "Buyurtmachi"ga taqdim etadi.

7.3. Shartnomani bajarilishi uchun taaluqli xujjatlarni xaqqoniyligi va to'g'riligi tschtsn ushbu xujjatlarni taqdim etayotgan tomonlar mas'ul va javobgardir.

7.4. Ushbu shartnoma tomonlar o'rtasida imzolangandan so'ng belgilangan tartibda va muddatda tegishli g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ro'yxatdan o'tkazilmagan shartnomalar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.


7.5. Shartnomaga barcha o'zartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va tomonlar imzo va muxrlari bilan tasdiqlanib tegishli g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi.

8. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI


8.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korrupsion havf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

“Sotuvchi”	“Xaridor”
Sotuvchi : “MEMOR PARDOZ” XK	Xaridor: Бешарш тумани ХТБ
Manzil: Beshariq shahar Vatan qishlog'i	Manzil : Бешарш ш Дустлик к 8 уй
x/r: 20208000900884580001	x/r: 100022860302157092100075059
Bank nomi: Universal bank Besharik filial	Bank nomi: Марказий банк Тошкент ш
MFO : 00973 STIR : 305546075	MFO :00014 STIR :200155197
OKED:	OKED :
Tel :	Tel : 6121259
raxbar:  S.Jo'rayev	raxba: V.Abduraxmonov



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	VOSIDJON ABDURAXMONOV RASULJONOVICH
	Imzolangan sana	20.12.2022 15:12
	Hujjat kodi	NG74421614
	Hulosa kodi	TK1411886438

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

TK1411886438

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **HAQ EVAZIGA XIZMAT KO‘RSATISH ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Beshariq tumani xalq ta’limi tomonidan 15.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Beshariq tumani
yuridik markazi
markaz rahbari:



A.G‘.NURMATOV

19.12.2022

**203209 лот юзасидан шакланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилади.

Муҳокама тугаган сана:

16.12.2022 09:27

Комиссия раиси:

ABDURAXMONOV VOSIDJON RASULJONOVICH